

O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TA'MINLASHNING METODOLOGIK VA HUQUQIY ASOSLARI

Ergashev Azamat Zaropjonovich

*O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya Akademiyasi 2-bosqich
tinglovchisi*

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari likvidliligini ta'minlash metodologiyasi va huquqiy asoslari tegishli qonunlar, farmonlar, qarorlar, nizomlar va me'yoriy hujjatlar atroflicha o'rganilgan, mazkur qonunchlik hujjatlari xalqaro va mahalliy bank amaliyotida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'zgarishi bo'yicha tadqiqot amalga oshirilgan va xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, Markaziy bank, likvidlilik, bank likvidlili, aktiv, majburiyat, depozit, risk, yuqori likvidli aktivlar, majburiy zaxira siyosati, valyuta, ochiq bozor operatsiyalari.

Abstract: In the article it is described, the methodology and legal basis of ensuring the liquidity of commercial banks in the Republic of Uzbekistan, relevant laws, decrees, decisions, regulations and regulatory documents are studied in detail. Research was carried out on the changes of socio-economic processes taking place in international and local banking practices of these legal documents, and conclusions were drawn based on this.

Key words: commercial banking, Central Bank, liquidity, bank liquidity, asset, liability, deposit, risk, highly liquid assets, mandatory reserve policy, currency, open market operations.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari likvidliligini ta'minlash metodologiyasi va huquqiy asoslari tegishli qonunlar, farmonlar, qarorlar, nizomlar va me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinib, mazkur qonunchlik hujjatlari xalqaro va mahalliy bank amaliyotida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'zgarishi va bozor munosabatlarning chuqurlashuvi natijasida doimiy ravishda takomillashib boradi.

Tijorat banklari likvidliligini ta'minlash metodologiyasi va huquqiy asoslariga alohida e'tibor qaratilmoqda, xususan "O'zbekiston respublikasi Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Valyutani tartibga solish to'g'risida" va "To'lov tizimi to'g'risida"gi qonunlarning yangidan qabul qilinib, ushbu qonunlarda tijorat banklari faoliyati, xususan

ularning likvidlilik masalalari alohida e'tiborga olindi. Bundan tashqari, Markaziy bank tijorat banklarining likvidliligni qo'llab-quvvatlash maqsadida, ularning likvidlilik me'yorlariga qo'yilgan talablarni xorijiy va mahalliy moliya va iste'mol bozorlarida yuz berayotgan jarayonlar asosida o'zgartirib bormoqda. Mamlakatimiz tijorat banklari likvidliligini boshqarish va ularning moliyaviy barqarorligini oshirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda va tegishli samaraga ham erishilmoqda. Biroq, bu borada yechimini kutayotgan qator dolzarb masalalar saqlanib qolmoqda. Xususan, Ta'kidlash joizki, 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida O'zbekistonda tijorat banklarining aktiv operatsiyalarini rivojlantirish muhim masala hisoblanadi. Buning uchun esa «davlat ulushiga ega tijorat banklarida transformasiya jarayonlarini yakunlash, xususiy banklarning ulushini 2025 yilda jami bank aktivlarining 60 foiziga etkazish» kabi vazifalar belgilab berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 maydagi PF-5992-son "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida tijorat banklari kredit portfelini va ular faoliyatidagi risklarni boshqarish sifatini oshirish mamlakat bank tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda aholining banklarga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash, bank aktivlari likvidligi, to'lovga qobiliyatligi va barqarorligini ta'minlash borasida ulkan ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Darhaqiqat, 2017 yildan boshlab O'zbekistonda jami kreditlarning YAIMga nisbati sezilarli darajada oshib, MDH va daromadi o'rtadan pastroq bo'lgan davlatlar darajasiga yetdi. 2017–2020 yillarda O'zbekistonda kreditlar hajmi keskin oshdi hamda kreditlarning o'sish sur'ati YAIMning o'sish sur'atidan yuqori bo'ldi. 2021 yilda O'zbekistonda jami kreditlarning YAIMga nisbati (44 foiz) MDH davlatlari bo'yicha mediana ko'rsatkichidan (30 foiz) baland bo'lib, uning yuqori darajasi saqlanib qolmoqda. Shuningdek, O'zbekiston qisqa vaqt ichida jami kreditlarning YAIMga nisbati ko'rsatkichi bo'yicha daromadi o'rtadan pastroq bo'lgan davlatlar bo'yicha mediana ko'rsatkichiga yetib oldi. Bularning barchasi mamlakatimiz tijorat banklari likvidliligiga bevosita va bilvosita ta'sir etadigan omillar hisoblanib, uni amaliy va nazariy jihatdan samarli boshqarish naqadar dolzarb va zarur ekanligini belgilaydi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasidagi ma'ruzasida mamlakatimiz valyuta bozoriga ham to'xtalib o'tdi: "Mana, valyuta bozori erkinlashganiga ham 3 yildan oshdi. Shu davrda erkin valyuta ayirboshlash bo'yicha yurtimizda yetarli tajriba to'plandi. Endi iqtisodiyotimizning xorijiy

valyutaga bog'liqlik darajasini bosqichma-bosqich kamaytirish kerak". Shu maqsadda, kelgusi yilda valyuta kreditlari ulushini hozirgi 50 foizdan 45 foizga, ya'ni kamida 2 milliard dollarga pasaytirish lozimligini ta'kidlab o'tdi. Shu bois ham ular o'zlarining tijorat banklari faoliyatida nafaqat risklarni minimallashtirish, balki likvidlilikni ham tartibga solish va uning darajasini yetarli miqdorda saqlashga muhim e'tibor qaratilishi lozim. Tijorat banklarining moliyaviy beqarorligi, boshqa tomondan riskli aktivlari (kreditlar, investitsiyalar, vositachilik operatsiyalari) hajmini oshirish orqali iqtisodiyotni moliyalashtirish kabi masalalar ilmiy va amaliy jihatdan tadqiq etishni talab etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

E.Jarkovskaya; tahriri ositda nashr etilgan adabiyotda "likvidlik – bu bankning o'z vaqtida, to'liq va minimal xarajatlar evaziga majburiyatini bajarishdir", –deb ta'rif berilgan, biz muallifning o'z vaqtida va to'liq degan fikriga qo'shilmaymiz, chunki bank mijozning talabi bo'yicha pul mablag'lari o'tkazish yoki naqd pulga bo'lgan talabini u talab qilgan payt, ya'ni shu kuni bajarishi juda muhim hisoblanadi. Bank buni bir soat, ikki soat yoki 1-2 kunga kechiktirib bajarishi mumkin kechiktirib bajarishi ham likvidsizlik holatiga tushib qolganligini anglatadi. Professor O.I.Lavrushin: "Bank likvidligi – uning o'z vaqtida va kam sarflar hisobiga omonatchilar, kreditorlar va boshqa mijozlar oldidagi majburiyatini ado etishidir". Bu ta'rifda e'tiborli jihati, biz yuqorida ta'kidlagan "to'liq" degan ibora ishlatilmagan, shu jihatdan, bizning fikrimizcha banklar mijozlar oldidagi majburiyatini to'liq bajarilishi muhim hisoblanadi. Professor A.Tavasiyev: "Bank likvidligi – tahlil jarayonida bank mijozlar va turli kontragentlar oldida majburiyatlarini bajarish imkoniyati va istagining mavjudligida namoyon bo'ladi". Bizning fikrimizcha, ushbu ta'rif boshqalariga nisbatan bankning likvidlilik holatini ochib berishga xizmat qila olmadi, chunki "tahlil jarayonida", "imkoniyati va istagining mavjud bo'lishi" kabi iboralar bu yerda ortiqcha qo'llanilgan bo'lib, bank likvidli bo'lishi uchun majburiyatni to'liq va talab qilingan paytda bajarishi muhim hisoblanadi. Bankning imkoniyati va istagining bor yoki yo'qligi mijoz o'z pulini talab qilganda inobatga olinmaydi, agar bajarmasa u likvidsizlik deya baholanib, mijozlarning bankka bo'lgan ishonchi pasayadi, oxir oqibat yo'qoladi, buning tavsilotlari esa butun bank tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari, xususan professor Sh.Abdullayeva, va professor A.Omonov, i.f.d. O.Sattarov, i.f.d. A.Abdullayev va boshqa iqtisodchi olimlar ham banklarning likvidlili bo'yicha o'z munosabatlari va nuqtai nazarlarini bildirgan, biroq ularning barchasida banklarning likvidlili aynan raqamli iqtisodiyot sharoitida qanday bo'lishi masalasi asosiy obyekt

sifatida qaralmagan. Masalan Sh.Abdullayeva: “Likvidlik atamasi sotish, aktivlarni pul mablag‘lariga aylantirishning amalga oshirilishini, ya’ni bankning Markaziy bank yoki vakil banklardagi naqd pul mablag‘laridan oqilona foydalanish, likvid aktivlarini sotish imkoniyati va h.k. larni anglatadi.” , deb ta’rif bergan bo‘lsa, A.Omonov likvidlikka: “Likvidlik – bu bankning mijozlardan kutilgan va kutilmagan holatlarda moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabni qondirish qobiliyatidir”, deya ta’kidlaydi. Berilgan ta’riflardan ko‘rinib turibdiki, iqtisodchi olimlar banklarning to‘lov qobiliyati va likvidligi kabi tushunchalarni e’tirof etgan holda, ularga o‘z yondoshuvlarini ifoda etmoqda, biroq, ushbu tushunchalar mazmun jihatidan bir-biridan jiddiy farq qilmaydi. Tadqiqot metodologiyasi Respublikamiz tijorat banklarini likvidligini tartibga solish bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlil qilindi. Tijorat banklari likvidligini ta’minlash metodologiyasi va huquqiy asoslariga va tijorat banklari likvidligini tartibga solish bo‘yicha to‘plangan tajriba yaqindan o‘rganildi va ma’lumotlar bazasi yig‘ildi. To‘plangan ma’lumotlar asosida kuzatish va iqtisodiy tahlilni qiyoslash, tizimli yondashuv hamda mantiqiy yondashuv kabi uslublardan samarali foydalanildi. Tahlil va natijalar muhokamasi Tijorat banklari likvidligini ta’minlashda yuridik va jismoniy shaxslarning vaqtinchalik bo‘sh pul mablag‘larini banklarda saqlashi muhim hisoblanib, aynan shu mablag‘lar banklarning moliyaviy resurs manbasi sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan ushbu mablag‘larning kafolati tegishli hujjatlar asosida ta’minlanadi. Xususan, O‘zbekiston respublikasi konstitutsiyasida mazkur masalaga alohida e’tibor berilgan bo‘lib, ushbu hujjatning IX bobi “Iqtisodiy va ijtimoiy huquqlar” nomli bo‘limining 36-moddasida: “Har bir shaxs mulkdor bo‘lishga haqliligi va bankka qo‘yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlanishi belgilab qo‘yilgan”. Konstitutsiyaga mazkur moddaning kiritilishi juda muhim hisoblanib, jismoniy shaxslarning tijorat banklaridagi omonot sifatida saqlaydigan pul mablag‘larining davlat tomonidan kafolatlanishi tijorat banklariga qo‘yiladigan depozitlarning hajmini oshishiga va ularning likvidligini ta’minlashga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tijorat banklari mulkiy jihatdan davlat, xususiy yoki aksiyadorlik shaklida tashkil etilishi mumkin, konstitutsiya asosida jismoniy shaxslarning tijorat banklariga qo‘ygan pul mablag‘lari yuqoridagi keltirilgan tartibda kafolatlanishi, nafaqat tijorat banklarining likvidligini ta’minlashga balki, ularning faoliyatiga nisbatan aholining ishonchini ortishiga ham xizmat qiladi, hamda banklarning moliyaviy resurslarga bo‘lgan talabini qondirish imkoniyatini beradi. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklari likvidligini ta’minlash metodologiyasi ishlab chiqish, unga bo‘lgan talablarni belgilash va huquqiy asoslarini yaratish kabi masalalar Markaziy bankka birlashtirilgan bo‘lib, bu

haqda ham konstitutsiyaning 124-moddasida aniq qilib “O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini respublika Markaziy banki boshqarishi” belgilab qo‘yilgan. Bunga ko‘ra Markaziy bank tijorat banklarini qo‘shimcha likvid mablag‘lar bilan ta‘minlash yoki ortiqcha likvid mablag‘larni so‘rib olishi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki” to‘g‘risidagi qonunning 20-moddasida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, unga ko‘ra Markaziy bank boshqaruvi: “pul-kredit siyosatining asosiy parametrlarini, shu jumladan likvid mablag‘larni berish va olib qo‘yish bo‘yicha Markaziy bank operatsiyalarining hajmlari, limitlari va normativlarini, Markaziy bankning pul-kredit operatsiyalari bo‘yicha foiz stavkalarini, shu jumladan qayta moliyalashtirish stavkasini va (yoki) asosiy stavkani, majburiy zaxira talablarining miqdorlarini (majburiy zaxiralar normativlarini, majburiy zaxiralarni o‘rtachalash koeffitsiyentini) va beriladigan kreditlarga doir ta‘minot turlarining ro‘yxatini belgilashi” qayd etilgan. Buning moliyaviy, iqtisodiy-siyosiy ahamiyatiga e‘tibor beradigan bo‘lsak, bu makroiqtisodiy darajadagi masala bo‘lib, barcha turdagi, ya‘ni turli mulk shaklida tashkil etilgan tijorat banklarining asosiy maqsadi foydani oshirishga qaratilgan bo‘ladi. Bu alabatta, ularning faoliyatida bankning likvidliligini ta‘minlash va mijozlar oldidagi majburiyatni bajarish vazifasini ikkinchi, hatto uchinchi darajaga chiqarib yuborishi mumkin. Bu o‘z navbatida, mamlakatda to‘lov tizimining barqarorligi, milliy valyutaning to‘lov qobiliyati, aholining bank tizimiga ishonchi, monetar siyosatning samaradorligi va qator boshqa masalalarga bevosita ta‘siri keltirib chiqaradi. Shu bois ham O‘zbekistonda tijorat banklari likvidliligini ta‘minlashga qo‘yilgan me‘yoriy mezonlar, ularning bajarilishini nazorati kabi qator masalalarni Markaziy bank amalga oshiradi. Shu vazifalardan kelib chiqib, tijorat banklarining likvidliligini ta‘minlanishi va unga qo‘yilgan mezonlarning bajarilishini nazorat qilish huquqi “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi qonunida belgilab qo‘yilgan. Mazkur Qonun 2019-yil 11-noyabrda yangi tahrirda qabul qilingan bo‘lib, uning 2-bobi, 11-moddasida Markaziy bankning vakolatlari sifatida: “o‘zi belgilaydigan tartibda va shartlarda banklarga qisqa muddatli kreditlar, shuningdek likvidlikni tezkor sur‘atda qo‘llab-quvvatlash uchun kreditlar berishi” belgilab qo‘yilgan. Bundan ko‘rinadiki, Markaziy bank tijorat banklarining likvidliligni ta‘minlashdan, ularning mijozlar oldidagi majburiyatlarini bajarishda manfaatdor bo‘lib, buning asosiy sabablari yuqorida keltirib o‘tildi. Markaziy bank tijorat banklarining likvidliligini uzoq muddatli va qisqa muddatli davr davomida ta‘minlashning qator usullari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

-tijorat banklariga qayta moliyalashtirish (asosiy) stavkasi asosida kredit berish (uzoq muddatli);

-tijorat banklari jalb qilingan mablag'lariga nisbatan o'rnatilgan majburiy zaxira talablari (uzoq muddatli);

-banklararo pul bozori orqali qisqa muddatli pul mablag'larini taklif etish (qisqa muddatli);

-repo operatsiyalari (qisqa muddatli);

-va boshqa pul operatsiyalari.

Markaziy bank yuqorida qayd etilgan operatsiyalar yordamida tijorat banklari likvidligini ta'minlashga pul mablag'larini taklif etadi, shuningdek tijorat banklarida ortiqcha likvid mablag'lar vujudga kelganda tegishli takliflar asosida ulardan so'rib oladi. Xususan, Markaziy bank monetar instrument hisoblangan ochiq bozorda operatsiyalari obligatsiyalarni tijorat banklariga sotish orqali yoki depozitga jalb qilish asosida ham ushbu maqsadni amalga oshiradi. Shuni alohida qayd etish lozimki, Markaziy bankning obligatsiyalari yuqori likvidli qimmatli qog'ozlar guruhiga kirib, ular bo'yicha olingan daromadlar borasida uni sotib olgan shaxslar daromad soliqlaridan ham ozod qilingan. Tahlillar va tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining muhim monetar instrumentlaridan hisoblangan asosiy stavka va majburiy zaxira me'yorlari deyarli o'zining amaliy ahamiyatini yo'qotgan, ya'ni monetar siyosatining ushbu instrumentlari tijorat banklarining likvidligini ta'minlash, oshirish yoki uni so'rib olish jarayoniga deyarli ta'sir qilmaydi. Markaziy bank tijorat banklari qisqa muddatli likvid mablag'larga ehtiyoj sezganda ularga pul bozorida operatsiyalari orqali pul mablag'larini taklif etadi. Markaziy bankning ushbu operatsiyalari uning "Banklararo pul bozorida elektron savdo platformasi orqali operatsiyalarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomi asosida tartibga solib boriladi. Markaziy bank tijorat banklarining likvid mablag'larga bo'lgan talabini mazkur nizom doirasida amalga oshirilishini Toshkent valyuta birjasiga yuklagan bo'lib, ushbu tashkilot qiyidagi ishlarni amalga oshiradi:

banklararo pul bozorida birja savdolarini tashkil etadi va o'tkazadi;

savdo ishtirokchilariga savdo tizimi dasturiy ta'minotini taqdim etadi va ularning texnik sozligini ta'minlaydi;

banklararo pul bozori indikatorlarini shakllantiradi;

pul bozorida operatsiyalarga konfidensialligini ta'minlaydi;

oid ma'lumotlarning savdo ishtirokchilarini savdolarini o'tkazish joyi, vaqti va savdo yakunlari to'g'risida o'z vaqtida xabardor qiladi. Yuqorida qayd etilgan vazifalar, ya'ni Markaziy bank bozor foiz stavkalari darajasiga ta'sir

ko'rsatish, shuningdek bank tizimining likvidliligini ushlab turish va tartibga solish maqsadlarida pul bozorida likvidlikni taqdim etish va olib qo'yish bo'yicha operatsiyalarni amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, tijorat banklari likvidliligini ta'minlashning metodologik va huquqiy asoslarini o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratishni, zarur hollarda tijorat banklarini likvid mablag'lar bilan ta'minlash yoki so'ndirish kabi amaliy choralarni qo'llash orqali bank tizimi moliyaviy barqarorligi va aholining bank tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash lozim bo'ladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan tadqiqot natijalarida quyidagilar shakllanadi:

- O'zbekistonda tijorat banklari likvidliligini ta'minlashning metodologik va huquqiy asoslari yaratilgan bo'lishiga qaramasadan, ular globallashtirish sharoitida doimiy ravishda takomillashtirib borishni talab etadi;

-Markaziy bank iqtisodiyotining globallashtirish sharoitidagi vaziyatdan kelib chiqqan holda tijorat banklari yuqori likvidli aktivlar tarkibiga tijorat banklarining "naqd pullari" va "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qimmatli qog'ozlari"ni kiritishi maqsadga muvofiq;

-tijorat banklari hisobot davrining birinchi sanasiga lahzalik likvidlik, joriy likvidlik va sof barqaror moliyalashtirish me'yoriga qo'yilgan talablarni bajarilsada, o'zining boshqa sanalarida, ayniqsa mamlakatning viloyat hududlarida joylashgan tijorat banklari vakillik hisobvaraqlarida va naqd pul bilan ta'minlash masalalarida hamon muammoli holatlarni kuzatish mumkin;

- tijorat banklari aktiv moddalarini tarkibida investitsiyalar hajmini xalqaro bank amaliyotidagi darajaga yetkazishga alohida e'tibor qaratish orqali, ularning likvidlikni boshqarish bo'yicha samarali tezkor qarorlarni amalga oshirish imkoniyatini beruvchi moliyaviy instrumentlardan kengroq foydalanish zarur;

- mamlakatda bozor munosabatlarini (mexanizmlari, qoidalari, tamoyillari) kengroq joriy etish, milliy iqtisodiyot va moliya bozorlari sezilarli shaffofligini oshirish hamda tijorat banklari kapitali tarkibida davlat ulushini darajada kamaytirish tijorat banklari likvidliligini ta'minlash va mustahkamligini oshirishga ijobiy ta'sir qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF5992-son "2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. Moliyaviy barqarorlik sharhi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan yiliga ikki marta chop etiladi. 2022-yil I yarim yillik. www.cbu.uz
4. Mirziyoev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil uchun mo'ljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 5. Jarkovskaya E.P. Bankovskiye delo. Uchebnik.-M.: 2006, Str. 345-346. International Journal of Finance and Digitalization Email: ijfduz@gmail.com International Journal of Finance and Digitalization www.ijfd.uz ISSN: 2181-3957 Vol. 1 Issue 02, 2022
6. Bankovskoye delo. Uchebnik. Pod redaksii O.I.Lavrushin, - M.: 2005. Str. - 260. 7. Bankovsoye delo: Upravleniye i texnologii. Uchebnoye posobiye dlya vuzov. Pod redaksii A.Tavasiyeva. – M.: 2001. Str. – 388.
8. Abdullayeva Sh. Pul va banklar. –T.; 2010.
9. Omonov A.A Tijorat banklarining resurslarini samarali boshqarish masalalari. Monografiya. "Fan va texnologiyalari", 43 bet.
10. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-y., 1-son, 5-modda.
11. Markaziy bankning "Banklararo pul bozorida elektron savdo platformasi orqali operatsiyalarni amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizomi. (Adliya vazirligida 2018-yil 12-mayda 3010-son bilan ro'yxatga olingan)
12. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risidagi qonunning "Pul bozorida likvidlilikni taqdim etish va olib qo'yishga doir operatsiyalar" haqidagi 31-moddasi. 13. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-sonli qaroriga asosan tasdiqlangan "Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizomi.
14. "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" qonunning "Banklar va bank guruhlari tomonidan prudensial normativlarga rioya etish" to'g'risidagi 38-moddasi.
15. O'zbekiston Markaziy banki statistik byuletini ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

16. www.knoema.com saytining ma'lumotlari asosida muallifning ishlanmalari.

17. www.sberbank.ru/common/img/uploaded/files/info/ifrs2018/_sberbank_ifrs-ye2018-rus_.pdf. International Journal of Finance and Digitalization